



**A.Oripov va E.Vohidov she'rlarida qo'llangan toponim va
antroponimlarning o'ziga xos xususiyatlari**

**Toshkent gumanitar fanlar universiteti "Amaliy va gumanitar fanlar"
kafedrası assistent o'qituvchisi Mo'minova Yulduz Aminboyevna.**

**Toshkent gumanitar fanlar universiteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-
kurs talabasi Nurullayeva Dinora Nurulla qizi**

Annotatsiya: A.Oripov va E.Vohidov kabi ulug' shoirlarimiz she'rlarida qo'llangan antroponimlar va toponimlarning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini ochib berilgan. She'rlarida qo'llangan toponimlarning va antroponimlarning bir xil shaklda berilishi, lekin har bir shoir ularni o'ziga xos bo'lgan eng yaxshi jihatlarini ochib berishgan. Shu bilan she'rlarida qo'llangan grammatik qo'shimchalarining she'rning ta'sir kuchuni oshirishdagi ahamiyatini ham ko'rishimiz mumkin.

Annotation: The unique features of anthroponyms and toponyms used in the poems of our great poets such as A. Oripov and E. Vahidov are revealed. Toponyms and anthroponyms used in their poems are given in the same form, but each poet revealed their best features. We can also see the importance of grammatical affixes in increasing the strength of poet.

Kalit so'zlari: antroponim, toponim, she'r, grammatik vositalar, O'zbekiston, o'zbekim.

Key words: anthroponym, toponym, poem, grammatical means, Uzbekistan, Uzbekim.

O'zbek adabiyotining eng zabardast darg'alaridan deya A.Oripov va E.Vohidovlarni barilla aytishimiz mumkin. Chunki ular yaratib ketgan katta maktab kelajak avlod uchun tugamashazina va hayot yo'llarimizni yorituvchi mayoqdir. Bu ikki shoirni so'zdan sehr hosil qila oladigan so'z ustalari hisoblanadi. Ayniqsa, eng nafis, eng jarangli, eng tovlanuvchan so'zlar xazinasidan tuzilgan she'rlarini o'qiganda, ko'zimizga nur keladi. Har bir yaratgan she'rlarida rang-baranglik, biri ikkinchisini takrorlamaslik kabi ohori to'kilmagan so'zlardan foydalanishgan.

A.Oripov va E.Vohidov she'riyati o'ziga xos bo'lgan katta bir maktabni tashkil qiladi. Chunki hech kimnikiga o'xshamagan, inson qalbining tub-tubidan joy oladigan va vatan deya yashashga chorlaydigan asarlari bor. Shoirning xalqqa, xalqning esashoigabuqadardildoshvasirdoshqilgan fazilatlarini ham shudir. "Abdulla qaysi bir temaga qo'lurmasin, nima haqda she'r yozmasin, uning ko'zi oldida



Ulug' Vatan turadi, o'sha ulug' Vatanning farzandi sifatida qo'liga qalam oladi. Shu sababdan uning she'rlari doim hayotbaxsh, pafosibaland, ovozi dadil, ruhitetik",- deb yozadi Matyoqub Qo'shjonov.

Abdulla Oripov she'riyatining o'ziga xos tomonlari haqida so'z yuritilar ekan, uning she'rlarini xalqqa manzur qilgan xususiyatlaridan biri uning xalqchilligida, xalq tilida yozilganligidadir. Uning vatan madhiga bag'ishlangan "O'zbekiston" qasida alohida o'ringa egadir. Har bir shoir vatanni o'z nigohlarida yurakdan his qilgan holda tasavvur qiladi. Shunday ekan A.Oripovning "O'zbekiston" qasidasi ham vatanni ulug'lovchi, bobolarimiz qilgan jasoratlari kuylangan bo'lib qolmasdan unda inson tafakkuri lol qoladigan darajada toponimlar va antroponimlarning o'ziga xos jihatlari ham qo'llagan holda ochib berishgan. Antroponomika kishilar ismi, sharifi, familiyasi, taxallusi, laqabi kabilaro'rganiladi. Antroponimiya- tilda mavjud bo'lgan barcha atoqli otlar majmuidir. Bu fan ismga oid bo'lgan ma'lumotlar, ya'ni insonning urug'-aymog'i, otasi, millati, kelib chiqishi va insoniy fazilatlarini tahlil qiladi. Demak, antroponim bu har qanday atab qo'yilgan shaxsni chaqiradigan unga aloqador bo'lgan ismdir. A.Oripovning "O'zbekiston" qasidasida shunday antroponimlarni qo'llagan o'rinlarni ko'rishimiz mumkin.

Ko'klamningdan olib sururni, Dovrug' soldi ustoz Olimjon, G'afur G'ulom tuygan g'ururni Qilmoq mumkin dunyoga doston. O'zbekiston, Vatanim manim. Bu yerda Hamid Olimjon, G'.G' ulomkabi ijodkorlarning nomi qo'llash orqali orqali antroponimlarni yaratgan. Ularning nomini keltirishi ularning zabardast shoir dovrug'i olamni tutganligini va G'. G'ulomdagi hech kimnikiga o'xshamagan hech narsaga teng bo'la olmaydigan g'urur tuyganligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga she'arning ta'sir kuchini oshirayotgan grammatik vositalardan biri qaratqich kelishigining "im" shakli orqali "im" egalik qo'shimchasi orqali omonimlik hosil qilingan. Bu kabi grammatik vositalarning qo'llanishi shoirning o'ziga xos bo'lgan qirrasini va she'arning, xalqchilligini, ohangdorligini oshiruvchi vositalardir. O'zbekiston, Vatanim manim deya she'arning o'ziga xos ohangdorlikni yaratish uchun shu shaklda qo'llagan. Aslida mening Vatanim shaklida bo'ladi. Lekin shoir o'ziga xos bo'lgan yo'nalish va nafislik yaratgan va har bir oxirgi misrani shu shaklda yakunlagan.

Qasidada faqat antroponimlar emas, balki toponimlar ham qo'llagan bo'lib, she'arning badiiyligini, ta'sirchanligini oshirgan yordam bergan. Toponim - joy



nomi yoki joy nomi bilan bog'liq holda yaratilgan so'z hisoblanadi. Toponimlar tilning lug'at boyligiga kiradi. Toponimika - bu geografik nomlar, ularning tarixi, kelib chiqishi, rivojlanishi va hozirgi holati haqidagi fandır. Toponimikani o'rganish til tarixi va nazariyasi uchun katta ahamiyatga ega. Qasidada shunday toponimlar qo'llangan bo'lib, ular ham o'z navbatini ma'lum bir grammatik vositalarning ham qo'llanishi she'rning jozibasini va ta'sir qilish imkoniyatini oshirgan.

Amerika — sehrli diyor, Uxlar edi Kolumb ham hali, Dengiz ortin yoritdi ilk bor, Beruniyning aql mash'ali. Kolumbda bor alamim manim, O'zbekiston, Vatanim manim.

Qasidani o'qir ekanmiz, unda qo'llangan toponimlar va antroponimlarni, balki grammatik qo'shimchalarning ham qo'llash bilan birga she'rning o'ziga xos bo'lgan ma'no qirralarini ham ochib bergan. Bu yerda qo'llangan “dengiz ortin yoritdi ilk bor” misrasida qo'llangan “N” qo'shimchasi tushum kelishigining qisqargan shakli va qaratqich kelishigining belgisiz ishlatilish holatini uchratish mumkin. Bu narsa she'rning ta'sir kuchini oshirishga va qo'shimchalarning naqadar yuqori darajada vazifa bajarishini ko'rishimiz mumkin. Aslida bu odatdagi tartibda belgili shaklda va qisqarmagan holatda bo'lganda “dengizning orti” va “ortini yoritdi” shaklida bo'ladi. Bu she'rdagi grammatik qo'shimchalar qaratqich va tushum kelishiklarini qo'llash orqali she'rning yanada ma'no qirralarini ochib bergan. She'rda Amerika toponimi qo'llangan bo'lib shu bilan birga u yerni “sehrli diyor” deya tasviriy vositalarni ham qo'llagan holda she'rga boshqacha ruh bag'ishlagan. Beruniy va Kolumb kabi antroponimlarni bir- biriga bog'liq holda ifodalash orqali she'rning qiymatini oshiruvchi vosita hisoblanadi. Yana bir misrasida Seni Chingiz g'azabga to'lib Yo'qotmoqchi bo'ldi dunyodan. Jaloliddin samani bo'lib Sakrab o'tding Amudaryodan. Sensan o'shal samanim manim.

Shoir shu darajada qasidada toponimlar va antroponimlarni ko'p qo'llaganki, ularning har biri o'z o'rni va ahamiyatiga ega bo'lgan vazifalarni bajarishi bilan ajralib turadi. Amudaryo toponimi faqat toponim sifatida qarash emas, balki aslida Amudaryo nomlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan qo'shma ot holidan ham ifodalanishi juda ahamiyatga egadir. Shoir shu darajada morfologik va sintaktik vositalardan foydalanganki, bir narsani bir nechta ma'no ifodalashi bu shoirning mahorati deyish mumkin. Mana shunday antroponim, toponimlar va Grammatik vositalarning qo'llash eng buyuk va so'z daryosini kashf qilgan E. Vohidovning “O'zbekim” qasidasi ham aynan “O'zbekiston” qasidasiga juda o'xshash bo'lgan



jihatlarni ko‘p uchratish mumkin. Bu ikki qasidada aynan birxil antroponimlar va toponimlarning qo‘llanishi, lekin har biri o‘z xususiyati va nimani ifodalab kelishi jihati bilan ajralib turadi. Qasidada shunday misralar bor:

Tuzdi-yu Mirzo Ulug‘bek

Ko‘ragoniy jadvalin,

Sirli osmon tokiga ilk –

Qo‘ydi narvon, o‘zbekim.

Mir Alisher na‘rasiga

Aks-sado berdi jahon,

She‘riyat mulkida bo‘ldi

Shoh-u sulton, o‘zbekim. Bu she‘rda qo‘llangan Mirzo Ulug‘bek, Mir Alisher antroponimlari ham xuddi A. Oripovning “O‘zbekiston” qasidasida ham qilingan bo‘lib bu yerda ikki shoir ikki xil vaziyatni ochib berishga harakat qilgan. A. Oripov Navoiyni kuchli so‘z ustasi ya‘ni qilich bilan qilolmaydigan ishni qalam bilan bitirganligini ochib bergan bo‘lsa, E. Vohidov esa she‘riyat turk dunyosida o‘zining ovozigaga ega bo‘lganligini ochib bergan. Mirzo Ulug‘bek bobomizni ham sirli osmon ilmini kashf etganligi va ilk narvonni qo‘yganligi bilan izohlab o‘tganlar. Bu bilan ikki shoirimiz qo‘llagan antroponimlar orqali o‘zbek olimlarimizning dunyoni hayratga soladigan darajada yuksak ma‘naviyatli, madaniyatli va g‘urur dunyosi shu qadar balandki, hech bir narsa bilan egib bo‘lmasligini ko‘rishimiz mumkin.

Yig‘ladi furqatda Furqat

Ham muqimlikda Muqim,

Nolishingdan Hind-u Afg‘on

Qildi afg‘on, o‘zbekim.

Bu yerda ham antroponim va toponimlarning birdaniga qo‘llash orqali chiroyli badiiylik yaratgan. Bu kabi antroponimlarning, toponimlarning birdaniga qo‘llanishi she‘rning naqadar grammatik vositalarga boyligi va nomlarning chiroyli qo‘llanishi bilan bog‘liq. Shu bilan birga shoir o‘zbekning buyuk insonlarini tilga olmasdan chet el yozuvchilarining ham nomlarini va joy nomlarini keltirish orqali yaratgan. Bu kabi vositalar ikki shoirimiz ijodida ham uchratish



mumkin. Bu esa she'rdagi qo'llangan toponim va antroponimlarning tarixi va nima sababdan shu shaklda qo'llanishi kabi vazifalarni ochib berishgan. Taxalluslarni qo'llash orqali ham antroponimlar hosil qilingan. Joylarga qo'yilgan nomlar, ya'ni toponimlar bugungi kunda ham ma'naviy meros, ham madaniy boylik, ham tilimizning qadimiy xususiyatlarini o'zida saqlab qolgan ko'hna tarixiy yodgorliklardan biri sanaladi: "Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urfodat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Nafaqat joy nomlari, balki juda ko'p narsalarga nom berish orqali ham tilimizning qay darajada boy ekanligini va o'zbek tilining imkoniyatlari shu darajada kengki har narsa o'z belgisi va nomiga ega. Shoirlarimiz ham bu hodisalarni hammasini o'z she'rlarida ochiq va ravshan ko'rsatib berganlar.

Foydalangan adabiyotlar:

1. A.Oripov. Tanlangan asarlar.- Toshkent.,
2. Erkin. Vohidov. Tanlangan asarlar.-T., Sharq, 2016.
3. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent2006;
4. "Tarixiy toponomika". Namangan 2010
5. To'ra Nafasov, Vazira Nafasova O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati. Toshkent "Yangi asr avlodi" 2007
6. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva. Toshkent-2010.